



ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti
FXB ta'lim yonalishi
1-bosqich 1- gurux talabasi
Abdullaev Akbarxonning
Informatika va axborot texnologiyalatri
fanidan

KURS ISHI

**Mavzu: Windows operatsion tizimida
ishlash texnologiyasi.**

Raxbar: B. Qulmatova

ANDIJON 2014

Andijon qishloq xo‘jalik instituti

“Oliy matematika va axborot texnologiyalari” kafedrası

**“Informatika va axborot texnologiyalari”
fanidan kurs ishi bo‘yicha berilgan**

Topshiriq

1- variant

Mavzu : *Windows operatsion tizimida ishlash texnologiyasi*

Fakultet: *Iqtisodiyot va boshqaruv*

Talaba: *AbdullaevAkbarxon*

Guruh: *Fermer xo‘jaligini boshqarish*

Mavzu: *Windows operatsion tizimida ishlash texnologiyasi*

REJA:

Kirish

I. Asosiy qism

I.1. Zamonaviy axborot texnologiyalarining texnik va dasturiy vositalari.

I.2. Operatsion sistema tushunchasi.

I.3. Operatsion sistemani tashkil etuvchi dasturlar.

I.4. WINDOWS operatsion sistemasi.

I.5. Fayllar va papkalar bilan ishlash.

II. Amaliy topshiriq

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Muhdarija

1. Kirish.....	5
2. Zamonaviy axborot texnologiyalarining texnik va dasturiy vositalari.....	6
3. Operatsion sistema tushunchasi	13
4. Operatsion sistemani tashkil etuvchi dasturlar	15
5. WINDOWS operatsion sistemasi	16
6. Fayllar va papkalar bilan ishlash.....	29
7. Amaliy topshiriq	30
8. Xulosa	31
9. Foydalanilgan adabiyotlar	32

Kirish

Kompyuter xotirasiga birinchi bo'lib, operasion tizim (OT) deb nomlangan tizimli dastur yoziladi. Operasion tizim deb, shunday dasturga aytiladiki, bu dastur yordamida kompyuter bilan foydalanuvchi o'rtasidagi muloqot o'rnatiladi, shu bilan birga barcha kompyuter qurilmalari ishini boshqarib boradi.

Operasion tizim – bu kompyuterni boshqarish, amaliy dasturlarni ishga tushirish va ularning tashqi qurilmalar, boshqa dasturlar bilan o'zaro aloqasini amalga oshiruvchi, shuningdek, foydalanuvchining kompyuter bilan muloqotini ta'minlovchi dasturiy vositalar yig'indisidir.

OT kompyuterning markaziy prosessori, tezkor yoki tashqi xotirasini, tashqi qurilmalari va boshqalarini boshqarib boradi.

Zamonaviy kompyuterlar uchun yaratilgan OT quyidagi turlari keng qo'llanilmoqda: MS DOS, ADOS, DR DOS, UNIX, WINDOWS, WINDOWS XP va boshqalar.

Eng ko'p tarqalgan OT lardan biri WINDOWS OT lari hisoblanadi. Barcha OT lar bir-biridan bajaradigan vazifalar soniga ko'ra va ish bajarish imkoniyatiga ko'ra farqlanadi.

Dunyoning 80% kompyuterlari Microsoft korporasiyasi tomonidan yaratilgan operasion tizimlar bilan jihozlangan. Bular 1981 yilda yaratilgan MS DOS dasturi, 1991 yilda yaratilgan Windows 3.1 dasturi, 1995 yilda yaratilgan Windows 95 dasturi, 1998 yilda yaratilgan Windows 98 dasturi, 2000 yilda yaratilgan Windows 2000 dasturi, 2001 yilda yaratilgan - Windows Millennium Edition va Windows XP dasturlaridir. Windows dasturning taniqli bo'lishining asosiy sababi bu ish jarayonining soddaligi, ko'p vazifali rejim, bir xil ishlash interfeysi va boshqa qulayliklar. Windows so'zi inglizcha Window – darcha, oyna, ma'nosini bildiradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanib, xalqora integrasiyaga qo'shilmoqda. Insoniyat ishlab chiqarish jarayonida tartibsiz mexanik operatsiyalardan tartibli boshqaruv operatsiyalari tomon jadal xarakatlanmoqda. Elekon ofislar xar xil axborotlashtirish vositalari bilan taminlangan. Ma'lumotlarning elektron shakli xayotning barcha jabxalarda inson faoliyati xarakterini o'zgartirmoqda.

Axborot texnologiyasi va uning dasturiy ta'minotining rivojlanishi, ofisda ish o'rinlarining evolyusion va informasion to'yinishiga sharoit yaratadi. Axborot tizimlari qurilishida qo'yiladigan strategik maqsad, korxona erisha oladigan

oqimlarining barchasini jamlashga sharoit yaratish ofisda avtomatlashgan ish joyini integrasiya qilishgakerak bo'lgan axborot oqimlari: nutq, tasvir, matn, ma'lumotlarni olishdir. Og'zaki xabarlar xodimlarning ofis ichida xamda tashqarida telefon tarmoqlari orqali bo'ladigan og'zaki muloqat paytida kelib chiqadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining texnik va dasturiy vositalari.

Kundalik hayotimizda turli ko'rinishdagi axborotlar masalan, matnli, grafikli, jadvalli, ovozli(audio), rasmlil, tasvirli(video) va boshqa axborotlar bilan ishlashga to'g'ri keladi.

Axborot texnologiyasi biror obyekt, jarayon yoki hodisaning holati haqidagi axborotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatishni amalga oshiruvchi jarayondir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari—shaxsiy kompyuterlar va telekommunikasiya vositalaridan foydalanilgan holdagi zamonaviy muloqotni o'rnatuvchi axborot texnologiyasi hisoblanadi.

Har bir turdagi axborot bilan ishlash uchun har xil texnik tavsifnomalarga ega bo'lgan axborot qurilmalari kerak bo'ladi. Bu axborot qurilmalari zamonaviy axborot texnologiyalarining texnik ta'minotini tashkil qiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining asosiy texnik vositalari sifatida hozirgi kunda kompyuterlar, hisoblash vositalari, audio va video qurilmalar, aloqa vositalari, teletayplar, telefakslar, telekslar, kseroks va boshqalar qo'llaniladi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining dasturiy ta'minoti axborot texnologiyalari ishini tashkil qilish va boshqarishni amalga oshiradi.

Jamiyatimizda axborotlarni uzatish, qabul qilish, xamda axborotlarni tarqatish uchun turli xil qurilmalar qullaniladi. Bu qurilmalarga Xisoblash texnikasi, telegraf, gramyozuv, magnitafon yozuvi, televideniye va radioni misol kilib olishimiz mumkin.

Bu qurilmalarda axborotlarni saqlashda va uzatishda ma'lum bir ko'rinishidagi signallar yordamida amalga oshiriladi. Bu signallar uzluksiz va diskret signallarga bo'linadi.

Radio va televideniyedagi, xamda gramyozuvdagi, magnitafon yozuvdagi qo'llaniladigan signallarning grafik ko'rinishi uzluksiz qiyshiq chiziq xolatida o'zgaruvchan shaklda bo'lib, bunday signallarni uzluksiz yoki analog signallar deyiladi. Bunga qarama-qarshi telegraf va xisoblash texnikasidagi signallar impuls shaklida bo'ladi va bunday signallarni diskret yoki raqamli signal deyiladi.

Biz xar bir texnikalaridan, ularda qanday signal qo'llanishidan qat'iy nazar imkoniyat darajasida foydalanishni istaymiz.

Informatika soxasida ishlayotgan xodimlar xech bo'lmaganda axborot vositalarida bir turdagi signalni qo'llanilishini istaydilar.

Shuning uchun sifatli bir shakldagi, uzluksiz yoki diskret signal qurilmalarini tanlash va yaratish muammosi paydo bo'ldi.

Uzluksiz va diskret signallarni uzaro taqqoslash uchun ularning quyidagi alohida ahamiyatli farqlari: Uzluksiz signal katta uzgaruvchan qiymatlar to'plamidan iborat bo'lsa, diskret signallar esa ikkita qiymatga ega bo'lib "0" va "1" sonlari orqali ifodalanadi. Bundan ko'rinib turibdiki diskret signalning uzluksiz signalga nisbatan farqi va imkoniyati katta.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, birinchidan diskret signalda poydo bo'lgan xatoliklarni to'g'rilashning osonligi bo'lsa, ikkinchidan bu signal turida ishlovchi texnik vositalarning qulayligidir.

Shuning uchun xamma turdagi axborot texnikalarining diskret signalni qayta ishlovchi qurilmalarini yaratish va ulardan keng foydalanish zamon talabi bo'lib qoldi. Natijada barcha rivojlangan davlatlarda axborotlarni diskret signal shaklda uzatuvchi va qabul qiluvchi radiopredatchik va radiopriyomnik, televizorlar xamda televizion uzatuvchi vositalar yaratilib, ulardan keng foydalanilmoqda.

Agarda diskret televidiniya bilan oddiy televidiniyani solishtirsak, birinchisining imkoniyatlarini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Masalan: Diskret televidiniyada quyidagi imkoniyatlar mavjud.

- kadr tasvirini to'tatish;
- ko'rilayotgan tasvirni kerakli qismlarini kattalashtirish;
- tasvirni kitob varogiga uxshab varoqlash;
- ranglarni uzgartirish;
- ekranda bir vaqtning uzida bir necha tasvirlarni xosil qilish;
- tasvirga xarakatlanuvchi va xarakatlanmaydigan yozularni qo'yish xamda xosil qilish;
- kadr burchagida kichik o'lchamda vaqt (soat, minut)ni ko'rsatish.

Xozirgi kunda axborotlarni keng ommaga uzatishda va tarqatishda televidiniya, radio vositalaridan keng foydalaniladi. Bu vositalar yordamida biz mamlakatimizdagi va boshqa mamlakatlardagi siyosiy, iqtisodiy, texnikaviy o'zgarishlar to'g'risida, madaniyat, sport va boshqa soxalardagi yangiliklardan xabardor bo'lamiz.

Xalq xo'jaligining turli soxalarida axborotlarni qayta ishlash va katta xajmdagi axborot to'plamlarini saqlash uchun EXMlaridan keng foydalanilmoqda.

EXMlar avval turli xil matematik xisob kitob ishlarini bajargan bo'lsa, xozirgi kunda axborotning turli shakllarini sifatli qayta ishlash imkoniyatiga ega.

Masalan:

- ilmiy va iqtisodiy masalalarni yechish;
- turli xil grafik tasvirlarni chizish;
- texnologik jarayonlarni boshqari va boshqalar.

Axborot tizimlari ishida va unig texnologik jarayonida aniq farq qilib turuvchi bir qancha bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Ma'lumotlarning paydo bo'lishi -ya'ni xo'jalik operasialari natijalarini . boshqaruv obyektlari va subyektlari xususiyatlarini, ishlab chiqarish jarayonlari parametrlarini, normativ va yuridik aktlar mazmunini qayd etuvchi boshlangich ma'lumotlarning yuzaga kelishi.

2. Ma'lumotlarning to'planishi va tizimlashtirilishi - ya'ni kerakli ma'lumotlarni tezlik bilan topish va tanlash, ma'lumotlarni metodik jixatdan yangilash, ularning buzib ko'rsatilishidan, yuqolishidan saqlash, darajasida ma'lumotlarni joylashtirish.

3. Ma'lumotlarni qayta ishlash-bu ilgarigi to'plangan ma'lumotlar asosida yanada to'ldiruvchi, taxliliy, tavsiyalovchi, prognozli ma'lumotlarning yangi ko'rinishlari shakllanuvchi jarayondir.

4. Ma'lumotlarni aks ettirish-ma'lumotlarni inson qabul qilishi uchun foydali shaklda taqdim etish. Eng avvalo-bu bosqichga chiqarish, ya'ni xujjatlarni kishi qabul qilishi uchun qulay xolatda tayyorlash.

Avtomatlashtirilgan axborotlar tizimining texnik vositalar tasnifi quyidagilar:

Axborotlarni kiritish qurilmalari: klaviatura, manipulyator, joystik, nurli peromexanik "sichkon", optik "sichkon", skaner, grafik planshet, sensorli ekran, nutkni kiritish vositasi.

Axborotlarni chikarish qurilmalari: displey va displey adapterlari, elektron-nurli trubka, vektorli displey. Axborotlarni bosib chiqarish qurilmasi: zarbli printer, literli printer, matrisa-nuktali printer, purkovchi printer, termografik printer, lazerli printer, grafa tuzuvchilar.

Oxirgi yillarda EXMlarni ishlab chiqarilishi taraqqiyoti natijasida shaxsiy kompyuterlar yaratildi. Bu shaxsiy kompyuterlar yordamida aloxida foydalanuvchilar ishlarini bajarish imkoniyati yaratildi.

Shaxsiy kompyuter foydalanuvchisi sifatida ilmiy xodim, konstruktor, texnolog, uqituvchi, medesina xodimi va boshqalar bo'lishi mumkin. Bunga asosan foydalanuvchilar uzlariga tegishli va zarur bulgan axborotlarni qayta ishlashi xamda bu kompyuter xotirasidagi axborotlar to'plamidan foydalanishlari mumkin.

Masalan: Ilmiy tekshiruv ishlari, konstruktorlik va texnologig yaratuvchilik, adminstrativ boshqarish, rejalashtirish, moliyaviy xisob kitob va xisobotlarni tayyorlash kabi vazifalarni kompyuter yordamida zamonaviy axborotlar texnologiyasiga asosan bajarish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Shaxsiy kompyuterlar foydalanuvchilarga axborot kiritish turli qurilmalarining keng turi tavsiya etiladi. Shunday bo'lsada, ko'pincha ShKlar yagona kiritish qurilmasi-klaviatura bilan ishlab chiqariladi. Keng ko'lamda qo'llanishi jixatdan klaviaturadan so'ng uni funksional jixatdan to'ldiruvchi turli xil manipulyatorlar va asosan "sichkon" xilidagi manipulyatorlar qo'llaniladi.

Shaxsiy kompyuter(ShK)-bu kqo'llanilishining xamma bopliq va universallik talablarini qondiruvchi stolli yoki ko'chma EXMdir.

ShKning afzallik tomonlari:narxining arzonligi;-atrof muxit sharoitlariga maxsus talablarsiz foydalanishning avtonomligi; boshqarish, fan, ta'lim, maishiy turmush, soxasida uning xilma-xil qo'llanishlariga moslashuvchanligini

ta'minlovchi arxitekturasining tez uzgaruvchanligi; ishning yuqori darajada ishonchliligi.

ShK asosiy bloklarining tarkibi va vazifasini ko'rib chikamiz.

Mikroprosessor (MP). Bu ShKning markaziy bloki bo'lib, mashina barcha bloklarning ishini boshqarish va axborot ustidan arifmetik va mantiqiy operatsiyalarni bajarish uchun mo'ljallangan.

Uning tarkibiga quyidagilar kiradi: boshqaruv moslamasi(BM)-mashinaning barcha bloklariga zarur paytda bajariladigan operatsiyalar uziga xosligi va avvalgi operatsiyalar natijalari bilan uzaro boglangan boshqaruvning muayyan signallarini uzatadi va shakllantiradi; bajariladigan operatsiyalarda foydalanuvchi xotira uyachasi adresini shakllantiradi va ShKning tegishli bloklariga bu adresni uzatadi.

Arifmetik-mantiqiy moslama(AMM) -son bilan xisoblanadigan va ramzli axborotlar ustida barcha arifmetik va mantiqiy operatsiyalarni bajarishga mo'ljallangan;

Mikroprosessorli xotira(MPX)-mashina ishining yaqin taktlarida xisoblashlarda bevosita foydalaniladigan axborotni qisqa muddatli saqlash, yozib olish va berish uchun xizmat qiladi.

Tizimli shina kompyuterning asosiy interfeys tizimi bo'lib, uning barcha moslamalarida o'zaro boglanish va aloqani ta'minlaydi.

Tizimli shinani boshqarish mikroprosessor yordamida bevosita yoki ko'pincha qo'shimcha mikro chizma-boshqarishning asosiy signallarini shakllantiruvchi shina kontrollerlari orqali amalga oshadi.

Asosiy xotira(AX) mashinaning boshqa bloklari bilan axborotni saqlash va operativ almashish uchun mo'ljallangan

AX ikki turdagi yodda tutuvchi moslama: doimiy va operativ yodda tutuvchi (DYoTM), (OYoTM) moslamalarga ega.

Tashqi xotira ShKning tashqi qurilmalariga oida vazifalarni xal qilish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan istalgan axborotni uzoq saqlash uchun mo'ljallangan.

Tashqi xotira moslamalari sifatida kassetali, magnit tasmali yodda tutuvchi moslamalar(strimmerlar), yodda tutuvchi moslamalar, optik disklardagi yiguvchilar(CD-ROM) va boshqalar foydalaniladi.

Taminlash manbai ShK avtonom va tarmoqli energiya ta'minoti tizimlarini ta'minlovchi blokdir.

Taymer . Bu zarur bo'lganda joriy vaqtni avtomatik belgilab beruvchi ichkimashina soatlaridir.

Tashqi moslama (TM) istalgan xisoblash kompleksining eng muxim tarkibiy qismidir. Shuni aytish kifoyaki, TM ba'zan qiymatiga ko'ra butun ShK qiymatining 50-80 foizini tashkil etadi. TM tarkibi va xususiyatlari bo'yicha ShKni boshqaruv tizimlari va umuman xalq xo'jaligida qo'llash imkoniyati va samaradorligiga ko'p jixatdan bog'lik bo'ladi.

Multimedia vositalari -bu insonga uzi uchun tabiiy muxit:tovush, video, grafika, matnlar va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqotda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir.

Multimedia vositalariga axborotni nutqli kiritish va chiqarish moslamalari;xozirda keng tarqalgan skanerlar;yuqori sifatli videova tovushli platalar, tasvirni videokamerag'videomangnitafondan ko'chiruvchi va uni ShKga kirituvchi videoegallash(video-grabber) platasi ; kuchaytirgichli, tovushli kolonkali, katta videoekranli yuqori sifatli akustik va video aks ettiruvchi tizimlar kiradi.

Tizimli shina va ShK MPga namunaviy tashqi moslamalar bilan bir qatorda integral mikrochizmalni ayrim **qo'ushimcha platalarni** xam kiritish mumkin ular mikroprosessor : matematik qo'shimcha prosessor, xotiraga tugri kiradigan kontroller, kirish chiqish qo'shimcha prosessori, uzilishlar kontrolleri va boshqalarning funksional imkoniyatlarini kengaytiradi va yxshilaydi. Mikroprosessor, boshqacha aytganda, markaziy prosessor-Central Processing Unit(CPU)-bir yoki bir necha katta (KICh) yoki uta katta (UKICH) integral chizmalar ko'rinishid'a bajarilgan axborotni qayta ishlashning funksional tugallangan dasturiy-boshqaruv moslamasidir.

Mikroprosessor ma'lumotlari shinasining razryadligi umuman ShK razryadligini belgilaydi. MP adresi shinasining razryadligi-uning adresli makonini belgilaydi.

Adresli makon -bevosita mikroprosessorga junatilishi mumkin bulgan asosiy xotira uyachalarining eng ko'p miqdoridir.

Birinchi mikroprosessor 1971 yilda Intel (AKSh) firmasi tomonidan chiqarildi. Xozirgi paytda bir necha yuz turli xil MPlar chiqarilmoqda. Biroq eng mashxur va keng tarqalganlari Intel va unga o'xshash firmalar MPlaridir.

Barcha MPlar 2 guruxga bo'linadi:

-buyruqlarning to'liq to'plami bo'lgan CISC tipidagi MP (Complex Instruction Set Computing);

-buyruqlarning qisqartirilgan to'plami bo'lgan RISC turidagi MP (Reduced Instruction Set Computing) (xozirgi paytda bu modellar ishlab chiqish bosqichida);

IBM PC (International Business Mashine) turidagi zamonaviy ShKlarning ko'pida CISC tipidagi MPdan foydalaniladi.

Zamonaviy axborot texnologiyasining asosini tashkil qilgan kompyuterlar hozirgi kunda axborotlarni sifatli uzatish va qabul qilishda juda muhim ahamiyatga egadir.

Fan va texnikaning rivojlanishi axborotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatish kabi jarayonlarni butunlay boshqacha ko'rinishda amalga oshirish mumkinligini ko'rsatdi. Bunda asosiy o'rinni kompyuter texnikasi va boshqa turdagi vositalar egallaydi. Ishni bunday tashkil etish axborotlar almashinuvini tezlatishdan tashqari kerakli axborotni izlash, qayta ishlash va foydalanishni osonlashtiradi. Bundan tashqari axborotning ustida bajarilayotgan ishlar sifatli bajariladi.

Axborot texnologiyalari industriyasi majmuini kompyuter, aloqa tizimi, ma'lumotlar ombori, bilimlar ombori va u bilan bog'liq faoliyat sohalari tashkil qiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi shakllarda foydalanish mumkin:

- muayyan predmetlarni o'qitishda kompyuter dasturlari;
- kompyuter darslari – ko'rgazmali material sifatida;
- ta'lim oluvchilarning guruhli va frontal ishlarini tashkillashtirishda;
- ta'lim oluvchilarning ilmiy izlanishlarini tashkillashtirishda;
- ta'lim oluvchilarning o'qishdan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilish masalalarini hal etishda va boshqalar.

Umuman hozirgi kunda har bir tashkilot, o'quv muassasasi, firma va ishlab chiqarishning barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalari unumli qo'llanilib kelinmoqda.

Axborot texnologiyalari, ayniksa telekommunikasiyalarning barcha turlari axborot sanoatini eng muxim tarkibiy kismlaridir. Zamonaviy axborot texnologiyasi kompyuter texnikasi va aloqa vositalari soxasidagi yutuklariga tayanadi.

Axborot texnologiyasi(AT) obyekt, jarayon yoki xodisaning xolati xaqida yangi sifat axboroti olish uchun ma'lumotlar yigish, qayta ishlash va uzatish (boshlangich axborot) vosita va uslublari jamlanmasidan foydalanadigan jarayondir.

Axborot jamiyatning moddiy va texnologik negizini kompyuter texnikasi va kompyuter tarmoqlari, axborot texnologiyalari, telekommunikasiya aloqalari asosidagi turli xil tizimlar tashkil etadi.

Axborot jamiyati – ko'pchilik ishlovchilarning axborot, ayniqsa uning oliy shakli bo'lmish bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan band bo'lgan jamiyatidir.

Bir qator olimlar axborot jamiyatiga xos xususiyatlarni quyidagicha ko'rsatadilar:

- axborot inqirozi muammosi xal etildi, ya'ni axborot mo'l-ko'lligi va axborot taqchilligi o'rtasidagi ziddiyat yechildi;
- boshqa zaxiralarga qiyoslanganda axborot ustuvorligi ta'minlandi;
- rivojlanishning asosiy shakli axborot iktisodiyoti bo'ladi;

-eng yangi axborot texnika va texnologiyalari yordamida avtomatlashtirilgan xolda bilimlarni saqlash, qayta ishlash va foydalanish jamiyati shakllanadi;

-axborot texnologiyasi inson ijtimoiy faoliyatining barcha soxalarini qamrab olib, umumiylik xususiyat kasb etmokda;

-butun insoniyat sivilizasiyasining axborot birligi shakllanmoqda;

-zamonaviy axborot vositalari yordamida xar bir insonning butun sivilizasiya axborot zaxiralariga erkin kirishi amalga oshdi.

Ijobiy tomonlardan tashqari, salbiy oqibatlar xam oldindan ko'rilgan:

a) ommaviy axborot vositalarining jamiyatga tobora ko'prok ta'sir ko'rsatishi;

b) axborot texnologiyalari odamlar va tashkilotlarning xususiy xayotini buzib yuborishi;

v) sifatli va ishonchli axborotni tanlash muammosi mavjudligi;

g) ko'pgina odamlarning axborot jamiyati muxitiga moslashishi qiyinligi. "Axborot elitasi" (axborotlarni qayta ishlash bilan shugullanuvchi kishilar) va iste'molchilar orasida muammolar vujudga kelishi xavfi.

Moddiy ishlab chiqarishga yunaltirilgan sanoat jamiyatida allaqachonlar klassik iqtisodiy kategoriyalar bo'lgan bir necha asosiy zaxira turlari ma'lum, ya'ni:

Moddiy zaxiralar - ijtimoiy maxsulot ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun muljallangan mexnat predmetlari yigindisidir, masalan, xom-ashyo, materiallar, yokilg'i, energiya, yarim tayyor maxsulotlar, detallar va xokazolar.

Tabiiy zaxiralar - kishilarning moddiy va ma'naviy extiyojlarini qondirish uchun jamiyat tomonidan foydalanadigan tabiat obyektleri, jarayonlari, sharoitlaridir.

Mexnat zaxiralari - jamiyatda ishlash uchun umumiy ma'lumot va kasbiy bilimlarga ega kishilardir.

Moliyaviy zaxiralar - davlat yoki tijorat tuzilmalari ixtiyorida o'tgan pul mablag'laridir.

Energetika zaxiralari - energiya quvvati mavjud maxsulotlar, masalan, ko'mir, neft, maxsulotlari, gaz, gidroenergiya, elektr energiyasi va xokazolar.

Kibernetika, sungra xisoblash texnikasi va axborotlashtirishning paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan axborot so'zi uzining dastlabki ma'nosini saqlab qolgan bo'lsada, ayni paytda bir qator yangi ma'nolarga xam ega bo'ldi. Axborot deganda biz qandaydir bir tizim xaqida ma'lumotlar, dalillar, bilimlar yigindisini tushunamiz. Tizim xaqidagi axborot yoki kuzatish yo'li bilan yoki xam tabiiy, xam modelli tajribalar natijasida yoki mavxum gipotetik tizimlarni o'rganish - mantiqiy xulosa chiqarish asosida olinishi mumkin.

Tajriba o'tkazilguncha mavjud bo'lgan axborot aprior, tajribadan keyingisi - aposterior deyiladi. Axborot olish jarayoni ko'pincha statistik xususiyatga ega bo'lgani uchun tizim xaqidagi axborot (ayniqsa murakkabi) determinlashgan yoki extimollashgan xam bo'lishi mumkin.

Xozirgi paytda axborotni qanday tushunish xaqida quyidagicha nuqtai nazarlar yuzaga kelgan:

Axborot - xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari iste'mol etuvchi zaxira bo'lib, energetika yoki foydali qazilmalar zaxiralari kabi axamiyatga ega. Jamiyat rivojlangani sari iktisodiyot, fan, texnika, texnologiya, madaniyat, san'at, tibbiyot kabilarning turli masalalari xaqidagi mavjud ma'lumotlar, axborot zaxiralaridan foydalanishni tashkilotish intellektual va iqtisodiy xayotga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda.

Axborot - fan va texnika rivojlanishi natijalari xaqidagi fan-texnika ma'lumotlari, bilimlari yigindisidir. Boshqacha aytganda, axborot, mazkur talqinga binoan, fan-texnika faoliyati axborot xizmati tizimining ma'lumot usuli va "xom-ashyo"sidir.

Axborot - axborot xizmati tizimlarida fan-texnika faoliyati va turli soxalarda kadrlar tayyorlashni shakllantiruvchi maxsulotlar yigindisidir, ya'ni axborot zaxiralarini ishlab chiqarish va iste'mol etish faqat jamiyatning intellektual xayoti bilan cheklanadi.

Ko'rinib turibdiki, bu talkinlardan birinchisi eng to'liq, axborot jarayonlari ko'p qirraligini qamrab oluvchi tushunchani bermoqda. Chindan xam, axborot jamiyat va inson faoliyatining barcha soxalariga kirib bormoqda.

Axborot zaxiralari - aloxida xujjat va aloxida xujjat to'plami, axborot tizimlari (kutubxona, arxiv, fond, ma'lumotlar banklari, boshqa axborot tizimlaridagi xujjatlar va xujjatlar to'plamidir.

Operatsion sistema tushunchasi.

"**Operatsion sistema**" tushunchasiga aniq ta'rif berish qiyin. Chunki "**sistema**" so'zi turli soha mutaxassislari tomonidan keng qo'llaniladi va turlicha talqin qilinadi; "**operatsion**" so'zi esa to'g'ridan-to'g'ri tarjimada "amal" degan ma'noni anglatmada, uning tub mohiyatini bu birgina so'z bilan aniq tavsiflab bo'lmaydi.

Xo'sh, unda "Operatsion sistema"ni qanday tushunish kerak?

Avval uning foydalanuvchisi to'g'risida fikrlashaylik.

"Operatsion sistemaning foydalanuvchisi" tushunchasi ham ancha keng tushuncha bo'lib, oddiy qilib aytganda, **foydalanuvchi**-mazkur sistemada ishlashi mumkin bo'lgan shaxs.

Kompyuter ishga tushirilganda, odatda uning qurilmalari bilan bir qatorda maxsus dastur ishga tushadi. Mazkur dastur foydalanuvchi bilan kompyuter o'rtasidagi muloqatni ta'minlaydi va bu muloqat operatsion sistema deb yuritiladi.

Operatsion sistemani disk operatsion sistemasi yoki qisqacha DOS deb ham yuritiladi.

EHM operatsion sistemasi ishini zamonaviy uyda istiqomat qiluvchining ayrim harakatlari bilan qiyoslash mumkin. Masalan, elektr chirog'ini yoqmoqchi bo'lsangiz, ulagichdagi tugmani bosishingiz, suv tarmog'idan suv olmoqchi bo'lsangiz, jo'mrakni burashingiz etarli. Keng ko'lamdagi xizmat ko'rsatish

qurilmalari va tarmoqlari majmuisiz, bu resurslar (misolimizda suv va elektr toki) ni olish uchun ko'pdan-ko'p ishlarni bajarish lozim bo'lar edi. Masalan, katta orolda yolg'iz qolgan kishi suv olishi uchun o'zi quduq qazishi; o'tin yoki qurilish uchun lozim bo'lgan yog'och olish uchun daraxtlarni kesishi, yo'nishi; oziq-ovqat uchun o'zi bug'doy ekishi va shu kabi ishlarni bajarishi kerak bo'ladi.

EHM yaratila boshlagan davrda unda biror arifmetik amalni bajarish uchun katta hajmdagi ishlar qilinar edi (amalda ishtirok etgan har bir ma'lumotni aniq bir adresda joylash; amal bajariladigan va natija yoziladigan barcha adreslarni bilish talab etilar edi, chunki ular dasturda ko'rsatilishi kerak edida). Bu ishlarni hozirgi kunda osongina hal qilish mumkin, chunki ko'p ishlarni engillashtirishga qaratilgan dasturlar (foydalanuvchiga yordamchi dasturlar) majmui ishlab chiqilgan va u amaliy masalalarni hal qilishda qo'l kelmoqda.


Xo'sh, mazkur "yordamchi" dasturlar majmui bo'lmasa, amallar EHMda qanday bajarilgan bo'lar edi?

Bunday holda foydalanuvchidan katta hajmdagi ish daftari tutib, unda tanlangan axborot EHM xotirasining qaysi joyiga kiritilishi, dastur, boshlang'ich ma'lumotlar va natijaviy axborotlar qaerda joylashishini ko'rsatishi talab qilinadi.

Agar siz EHMning tashqi qurilmalari (klaviatura, printer, diskuyurituvchi va boshqalar)ni qo'llamoqchi bo'lsangiz, har safar ana shu qurilmalar bilan aloqani tiklovchi, ularni boshqaruvchi maxsus dastur tayyorlashingiz kerak. Shuningdek qurilmalar ishlashi bilan bog'liq turli ishlarni nazorat qilishingiz lozim bo'lar edi. Demak, "yordamchi" dasturlarning xizmati beqiyos ekan.

Ta'kidlash lozimki, kompyuterlarning texnikaviy holatiga ko'ra, ulardagi operatsion sistemalar turlicha bo'ladi, shunday bo'lsada, ularning vazifasi yagona - ichki va tashqi qurilmalarning birgalikda ishlashini ta'minlashdan iborat.

EHM "dasturli ta'minoti", "texnik ta'minoti" va " operatsion sistema" o'rtasidagi uzviy bog'lanishni quyidagicha ifodalash mumkin.



Dasturli ta'minot o'z vazifalarini bajarishda tashqi qurilmalarni apparatli ("vositaviy") asos sifatida ishlatga, operatsion sistema dasturli ta'minot amallarini dasturli asos sifatida ishlatadi.

Bajaradigan vazifalaridan qat'iy nazar, operatsion sistema quyidagi sifatlarga ega bo'ladi:

1. **Ishonchlilik.** Sistema o'zi boshqarayotgan kompyuter qurilmalari kabi ishonchli bo'lishi kerak. Agar dasturda yoki qurilmada biror xato uchrasa, uni sistema topa olishi va bu holatni tuzatishga harakat qilishi, hech bo'lmaganda, shu

xato tufayli foydalanuvchi dasturiga etkaziladigan zararning oldini olishi kerak.

2. **Himoyalash.** Ixtiyoriy foydalanuvchi o'z ishiga boshqa foydalanuvchilarning ha-laqit qilishini xohlamaydi. Shu sababli sistema foydalanuvchilarni dastur va ma'lumotlarini o'zgaralar xatolari ta'siridan hamda aralashuvidan himoya qilishi lozim.

3. **Samaradorlik.** Odatda operatsion sistemaning o'zi EHMning katta resursini egallaydi. Bu resurslar foydalanuvchi ixtiyoriga berilmaydi. Demak, sistemaning o'zi ancha ix-cham bo'lishi va EHM resurslarini har tomonlama samarali boshqarishi lozim.

4. **Qulaylik.** Operatsion sistemada ko'p hollarda bir paytda ikki va undan ortiq foydalanuvchi ishlaydi. Ular operatsion sistema orqali turli maqsadli va turli algoritimli masalalarni hal qiladilar. Ravshanki, bunday holda har bir foydalanuvchiga keng qulayliklar yaratilishi talab etiladi. Shu bois mazkur xususiyat operatsion sistemaning muhim xususiyati hisoblanadi.

Operatsion sistemani tashkil etuvchi dasturlar.

Hozirda turli xil operatsion sistemalar mavjud bo'lib, ularni tashkil etuvchi dasturlar tizimini MS DOS (Microsoft Disk Operation System - "Microsoft firmasida yaratilgan diskli operatsion sistema") operatsion sistemasi misolida ko'rib chiqamiz.

Operatsion sistemalar kompyuter dasturlari orasida eng murakkabi bo'libgina qolmay, ular kompyuterni nafaqat amalda bajarishga, balki o'zi bajarayotgan ishlarni ham nazorat qilishga majbur etadi. Mazkur dasturlar bizning vazifalarimizni bajarish uchun emas, balki bizning ko'rsatmalarimizni bajarishda kompyuter qurilmalarida biror kamchilik, muammo yuzaga kelmasligi uchun yaratiladi va qo'llaniladi.

DOS asosan quyidagi uchta vazifani bajaradi:

- qurilmalarni (printer, klaviatura, diskuyurituvchi va boshq.) boshqarish;
- dasturlarni boshqarish (yuklash, bajarish va boshq.);
- buyruqlar va ko'rsatmalarni bajarish.

MS DOS quyidagi asosiy qismlardan iborat:

- Ma'lumotlarni xotiraga kiritish va chiqarish dasturi (BIOS nomi bilan ifodalangan);
- Operatsion sistemani faollashtiruvchi dastur (Boot Record);
- Ma'lumotlarni kiritish-chiqarish sistemasini kengaytirish moduli (BIO.COM);
- Amallar bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan uzilishlarni tahlil qilish moduli (DOS.COM);
- Buyruq protsessori (COMMAND.COM).

(Qavs ichida dasturlarning IBM PC guruhiga mansub kompyuterlarda ishlatiladigan nom-lari berilgan. Odatda BIO.COM va DOS.COM nomining oldiga shu sistemani ishlab chiqar-gan firmaning belgisi qo'yiladi, masalan, IBMBIO.COM va IBMDOS.COM).

Buyruq protsessori. Buyruq protsessori (COMMAND.COM) sistemali diskning ixti-yoriy joyida joylashishi mumkin. Buyruq protsessorining asosiy vazifasi foydalanuvchilarning DOSga yuborilgan buyruq yoki ko'rsatmalarini qabul qilish, tahlil qilish va, lozim bo'lganda, bajarish hamda foydalanuvchi dasturlarining buyruqlarini qayta ishlashdan iborat.

Operatsion sistemaning ichki va tashqi buyruqlari.

Foydalanuvchi va EHM o'rtasidagi muloqat foydalanuvchi tomonidan DOSga ketma-ket beriladigan buyruqlar va ko'rsatmalar asosida tashkil etiladi. Bu buyruqlar DOS tushunadigan til va shaklda bo'lishi kerak. Har bir buyruq o'z nomiga ega. Buyruqlar nomlaridan tashqari turli o'lchamlar hamda kalitlarga ega bo'lishi mumkin. Buyruq nomini klaviatura yordamida ekranga yozib, <Enter> tugmasini bosish bilan buyruqni kompyuter tomonidan bajarilishiga uzatish ishi tugallanadi.

DOS buyruqlari disklarni ishga tayyorlash, magnit disklaridagi axborotlarni ko'chirish, o'chirish, displeyning ishlash holatini o'zgartirish, matnlarni displeyga yoki chop etish quril-masiga chiqarish kabi vazifalarni bajaradi.

Ular ichki va tashqi buyruqlarga bo'linadi. COMMAND.COM dasturida mujassamlashgan buyruqlar ichki buyruqlar deb atalsa, DOS tashqi buyruqlari operatsion sistema bilan bir-galikda tavsiya etiladigan alohida-alohida dasturlardan iborat.


WINDOWS operatsion sistemasi

Operatsion sistemalarning rivojlanishi foydalanuvchining turli talablari asosida xotirada kam joy egallaydigan, kompyuter ichki resurslarini optimal boshqaradigan va bir vaqtda bir necha xil dasturlarning ishlashini ta'minlay oladigan sistemalarning yaratilishiga olib keldi. Natijada 1990 yilda WINDOWS 3.0 dasturlar tizimi yaratildi. Uning asosiy afzalligi bir vaqtda bir nechta dasturlar bilan ishlash imkoniyatidir. WINDOWS 3.0 to'la jadval rejimda ishlashi foydalanuvchining kompyuter bilan muloqatini engillashtirdi. Lekin u MS-DOS operatsion sistemasi boshqaruvida ishga tushirilishi sababli mustaqil operatsion sistema emas, balki grafik muxit sifatida tan olindi.

1995 yilning sentyabr oyida IBM PC kompyuterlari uchun ishlab chiqilgan WINDOWS-95 birinchi grafik operatsion sistema bo'ldi.

va yaqqol bajarish mumkin. Har bir bajarilayotgan amallar ekranda grafik ravishda tasvirlanadi. Bundan tashqari Windows OT bilan ishlaganda bir vaqtning o'zida bir necha masalalarni echish, ixtiyoriy printer va display, MS DOS dasturlari bilan ishlash qobiliyatiga ega.

Boshqa operasion tizimlarga o'xshab Windows dasturi ham kompyuter xotirasiga kompyuter yoqilish vaqtida avtomatik ravishda yuklanadi.



Windows yuklangandan keyin ekranning asosiy ko'rinishi havola qilinadi. Ekranning asosiy qismlari:

1-Ish stoli - ekranning bo'sh sohasi.

2-Papka va Yorliqlar - har xil dasturlar va fayllarning belgilari, ular yordamida shu dasturlar ishga tushiriladi yoki shu fayllar ochiladi;

3-Dastur oynalari - dastur bajariladigan oyna;

4-Pusk menyusi - Windowsning asosiy dasturlari va buyruqlari joylashgan menyusi.

5-Vazifalar satri - aktiv dasturlar va fayllar nomlarini ko'rsatuvchi tugmalar joylashadi va ular yordamida biridan ikkinchisiga tezkor o'tish ta'minlanadi;

6-Ko'rsatkichlar sohasi - vaqt va kun haqida ma'lumotlar, klaviatura, til standarti, tovush balandligi, printer, ekran va boshqa qurilmalar hamda har xil dastur belgilari joylashadi, ular yordamida shu qurilmalar xususiyatlarini yoki shu dasturlar ishlash holatlarini o'zgartirishimiz mumkin.

Windows dasturida hamma dastur, papka va fayllar alohida o'zining oynasida bajariladi. Oyna - bu ekranning chegaralangan to'rtburchak sohasi.

Windows OT va uning dasturlari quyidagi imkoniyatlarga ega:

foydalanuvchiga zamonaviy grafik muloqotni tavsiya etadi;

foydalanuvchi turli kompyuter dasturlari bilan ishlashida yagona muloqot vositasini yo'lga qo'yadi;

boshqa operasion tizimlar (masalan, MS DOS) bilan ishlaganda uning ishini to'raligicha ta'minlaydi;


bir vaqtning o'zida bir nechta vazifalarni bajaradi, hohlagan vaqtda bir dasturdan ikkinchisiga o'tishni ta'minlaydi;

kompyuterda mavjud operativ xotiradan unumli foydalanishga erishadi;

bir dasturdan boshqa dasturga ma'lumotlar almashinuvini ta'minlay oladi va boshqalar.


Windows ish stolida papka, yorliqlar va har-xil maxsus belgilar joylashadi. Yorliq - bu diskda joylashgan fayl yoki dasturgacha yo'llanma. Bu yo'llanmaga sichqonchani ikki marta bosish yordamida kirsak, kompyuter yo'llanmaga mos fayl yoki dasturni ochib beradi. Bitta fayl yoki dastur bir nechta yorliqlarga ega bo'lishi mumkin. Maxsus yoki ish stolning asosiy papkalari - bu Windows dasturi ustidan har-xil amallarni bajaruvchi maxsus dasturlarga yo'llanma.

Ular quyidagicha:



Moy kompyuter - maxsus papka yordamida sizning kompyuteringizda joylashgan disklar, papkalar va ular ichidagi fayllarni ko'rish va ular bilan ishlash (har-xil amallar bajarish) imkoniyatini yaratadi.

Moi hujjati - maxsus papkada siz tomoningizdan ish jarayonida yaratilgan matn, rasm, jadval va boshqa fayllar saqlanadi. Bu belgi yordamida shu papkaga tezkor o'tishingiz mumkin va ular bilan ishlash imkoniyati yaratiladi.



Setevoe okrujenie - maxsus papka yordamida sizning kompyuteringizga tarmoqqa ulangan kompyuterlardagi fayl, papka va disklar bilan ishlash imkoniyatini yaratadi.



Korzina - maxsus papkada siz tomoningizdan yaqinda o'chirilgan fayl va papkalar ro'yxati joylashadi. Bu belgilar yordamida esa shu papkaga tezkor o'tishingiz va ro'yxat yordamida ularni qayta joyiga tiklashingiz mumkin bo'ladi.

Windowsning maxsus papkalari quyidagi qismlardan iborat: Nom satri, Menyu satri, Yordamchi tugmalari satri, Ishchi soha.

Nom satri - oynaning eng yuqoridagi qismi. Bu satrda dastur belgisi, fayl nomi va dastur nomi, oynaning uchta asosiy tugmalari joylashgan bo'ladi. Shu satrni sichqoncha bilan bosib turib, harakatlantirsak, u holda oynaning ekrandagi joyini o'zgartirish mumkin;



Oynaning nom satrida joylashgan asosiy uchta tugmasi yordamida biz shu oynaning umumiy ko'rinishini o'zgartirishimiz mumkin.

Menyu satri - oynaning bu satri asosan nom satri tagida joylashadi va shu satr yordamida dasturning hamma buyruqlari bilan ishlashimiz mumkin, chunki bu satrda hamma buyruqlar saralanib guruhlariga bo'lingan;

Yordamchi tugmalar satri - oynaning uchinchi satri bo'lib, bu satrda yordamchi tugmalar joylashgan, ular yordamida dasturning har xil asosiy va ko'p ishlatiladigan buyruqlarni tezkor bajarishimiz mumkin;

Ish sohasi - oynaning asosiy qismi bo'lib, uning ichida dastur bajariladi va ma'lumotlar ko'rsatiladi;

Windows da matn kiritishdan tashqari qolgan amallarni barchasini sichqoncha yordamida bajarishimiz mumkin. Sichqoncha yordamida bajariladigan harakatlar:

Sichqoncha chap tugmasini bir marta bosish yordamida fayl tanlanadi - sichqonchani chap tugmasini bir marta bosib qo'yib yuborish;


Sichqoncha chap tugmasini ikki marta bosish yordamida fayl ochiladi - sichqonchani chap tugmasini ikki marta tez ravishda bosib qo'yib yuborish;

Kontekst (yordamchi) menyusini chiqarish - sichqonchani o'ng tugmasini bir marta bosib, qo'yib yuborish;


Ko'chirib olish yoki siljitish - sichqonchani chap tugmasini bosib, qo'yib yubormasdan joyidan qo'zg'atish.

Yordamchi qurollar tugmalaridan tashqari Windows ning sichqoncha bilan ishlashi uchun mo'ljallangan o'zining oyna muloqot elementlari ham mavjud.


Oynalarning muloqot elementlari:




Hamma o'zgartirishlarni saqlab, oynani berkitish tugmasi.




Hamma o'zgartirishlarni bekor qilib, oynani berkitish tugmalari.




Oynani berkitish tugmasi




Berk (yopiq) ro'yxat. O'ng tomondagi strelkachani sichqoncha yordamida bosganimizda shu ro'yxat sohasi ochiladi.




Ochiq ro'yxat. Agar ro'yxat sohaga sig'magan bo'lsa, u holda uni to'liq ko'rib chiqish uchun o'ng tomondagi ko'rib chiqish ko'rsatkichlardan foydalanamiz.



Bayroqchalar. Yumaloq bayroqchalar yordamida bir vaqtning o'zida faqat bittasini tanlashimiz mumkin bo'lsa, to'rtburchak bayroqchalar yordamida esa bir vaqt ichida bir nechtasini ham tanlashimiz mumkin.



Kiritish sohasi. Bu sohaga ma'lumotlarni kiritish uchun sichqonchanning chap tugmasi bilan shu sohaga bir marta bosamiz.



Schyotchik. Bu sohadagi ma'lumotlarni o'zgartirish uchun schyotchik chap tomondagi yuqoridagi yoki pastdagi strelkachalarni sichqonchanning chap tugmasi bilan bosamiz.



Begunok. Bu element yordamida biz har xil qurilmalar xususiyatlarini o'zgartirishimiz mumkin. Buning uchun sichqonchani chap tugmasi yordamida o'rtadagi ko'rsatkichni bosib siljitamiz.

Ishchi stolda tizim va amaliy dasturlarga mos keluvchi yorliqlarning turli ko'rinishlari joylashadi va ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

Moy kompyuter (Mening Kompyuterim)

Moi hujjati (Mening hujjatlarim)

Setevoe okrujenie (tarmoq doirasi)

Internet Explorer


Microsoft Outlook

Portfel

Korzina

Boshqa barcha xizmat dasturlari (Word, Excel, ...)

Moy Kompyuter. Moy kompyuter belgisi kompyuter resurslarining ahvoli bilan tanishishga yordam beradi. Uni ochib, ekranda qattiq va yumshoq diskarga murojaat qilish, shu bilan birga boshqaruv paneli orqali barcha kompyuter qurilmalari bilan muloqot qilish mumkin.



Bu oynada har bitta diskovod uchun, lokal qattiq disk uchun, kompakt disklar uchun va hamma tarmoqdagi kataloglar uchun bittadan belgi mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, bu oynada "Panel' upravleniya" («Boshqaruv paneli»)ga kirib, printerlarni tanlash va o'rnatishga kirish va boshqa qo'shimcha

qurilmalarga murojaat qilish mumkin. Hohlagan belgi bo'yicha «Sichqoncha» chap tugmachasini 2 marta bosish orqali mos papkalarni ochish mumkin.

Fayl menyusida - fayllar, papkalar, disklar bilan ishlaydigan buyruqlar yig'ilgan: Otkrit (Ochish), Nayti (Kidirish), Formatirovat (Formatlash), Svoystva (Xossalar) va x.k.

Pravka (Taxrirlash) menyusida - formatlash buyruqlari yig'ilgan: Kopirovat (Nusxa olish), Vstavit (Kiritish), Virezat (qirqib olish), Videlit (Belgilab olish) va h.k.

Vid - oynadagi belgilar ko'rinishini o'zgartirish (katta belgilar, kichik belgilar, ro'yxat ko'rinishida, jadval ko'rinishida yoki eskiz ko'rinishida).

Izbrannoye (Tanlangan) menyusida - foydalanuvchiga Internet xizmatlarini ishlatish imkonini beradigan buyruqlari yig'ilgan.


Servis - tarmoq diskleri bilan ishlash imkoniyatini beradigan buyruqlari yig'ilgan.

Spravka (Ma'lumot) menyusida - ilovalar hamda tizim bo'yicha foydalanuvchi o'zining qiziqtirgan savollariga javob topishi mumkin.


Moy kompyuter Windowsning maxsus papkalaridan bo'lib, u yordamida biz hoxlagan diskda joylashgan papka va fayllar bilan ishlashimiz mumkin. Ushbu papkani ochganimizdan keyin, uning oynasida quyidagi belgilarni ko'rishimiz mumkin:



- yumshoq disketalar belgisi. Ushbu belgi yordamida biz yumshoq disketalaridagi ma'lumotlarni ko'rishimiz va ularni o'qishimiz mumkin.



- qattiq disklar. Ushbu belgi yordamida biz qattiq disklardagi (vinchesterlardagi) ma'lumotlarni ko'rishimiz va ularni o'qishimiz mumkin. Ushbu disklar kompyuterning ichida joylashadi va ular doimiy xotira deb ham nomlanadi.



- fleshkalar. Ushbu belgi yordamida biz fleshkalardagi ma'lumotlarni ko'rishimiz va ularni o'qishimiz mumkin.




- papkalar (kataloglar). Ushbu belgi yordamida biz yumshoq, qattiq yoki kompakt disklardagi ma'lumotlarni saralaymiz. Har bir papka ichida boshqa papkalar yoki fayllar joylanishi mumkin. Papkani ochib, ularni ko'rishimiz va o'qishimiz mumkin.



- belgilari bilan esa papka ichiga joylashgan har xil fayllar

belgilanadi.



Moy kompyuterning ish sohasini sichqoncha bilan ko'rsatib, bir marta o'ng tugma bilan bosganimizda kontekst menyu hosil qilinadi.

Shu kontekst menyu orqali biz

quyidagiamallarni bajarishimiz mumkin:

Vid - oynadagi belgilar ko'rinishini o'zgartirish (katta belgilar, kichik belgilar, ro'yxat ko'rinishida, jadval ko'rinishida yoki eskiz ko'rinishida).

Uporyadochit znachki - oynadagi belgilarni saralash (nomi bo'yicha, turi bo'yicha, hajmi bo'yicha, yaratilgan kuni bo'yicha yoki avtomatik ravishda).

Obnovit - oynadagi ma'lumotlarni va o'zgarishlarni yangilash.


Vstavit - xotirada joylashgan ob'ektni shu oynaga qo'yish.

Vstavit yarlik - xotirada joylashgan ob'ektgacha yorliqni shu oynaga qo'yish.


Svoystva - tanlangan disk, papka, fayl yoki yorliqning xususiyatlarini ko'rish.

Boshqaruv panelida kompyuterni foydalanuvchining ehtiyojiga bog'liq ravishda bajarilayotgan ishlar ko'lami va maqsadidan kelib chiqqan holda biror ko'rinishni eng maqbul usulda hosil qilish imkonini beradi. Boshqaruv panelidagi yorliqlar ko'rinishi.

"Boshqaruv paneli" ning umumiy ko'rinishi



PUSK menyusi. Kompyuterda Windows operasion tizim ustidan va uning yordamida kompyuter va uning qurilmalar ustidan biror bir amal bajarmoqchi bo'lsangiz, siz PUSK menyusidan foydalanishingiz mumkin. Pusk tugmasini sichqonchanning chap tugmasi bilan bossangiz Windows ning bosh menyusi ochiladi.



Bosh menyu 9 bo'limdan iborat:

- 1) Programmi bo'limi yordamida Kompyuteringizga o'rnatilgan dasturlar ro'yxatini ko'rishingiz va ularni ishga tushirishingiz mumkin;
- 2) Hujjati bo'limi yordamida siz tomoningizdan oxirgi ishlatilgan hujjatlar (mant, rasm, musiqa va boshqa fayllar) ro'yxatini ko'rishingiz va ularni qayta ishga tushirishingiz mumkin;
- 3) Izbrannoe bo'limi yordamida siz yaxshi ko'rgan Internet sahifalar ro'yxatini ko'rishingiz va shu sahifalarga tezkor o'tishingiz mumkin;
- 4) Nastroyka bo'limi yordamida Windows dasturning ishlash holatlarini va Kompyuter qurilmalar xususiyatlarini o'zgartirish va sozlashimiz mumkin;
- 5) Poisk bo'limi yordamida fayl papka yoki tarmoqdagi Kompyuterni qidirishimiz mumkin;
- 6) Spravka buyrug'i yordamida Windowsda ishlash jarayonida paydo bo'lgan savollar va ularga javoblar to'plamini ko'rishimiz mumkin;
- 7) Vipolnit buyrug'i yordamida har-xil dasturlarni yoki buyruqlarni bajarishimiz mumkin;


8) Zavershenie seansa buyrug'i yordamida foydalanuvchining ishlash seansini tugatishimiz va yangisini boshlashimiz mumkin;

9) Zavershenie raboti buyrug'i yordamida kompyuter ishini tugatib, o'chirishimiz mumkin. Agar paydo bo'lgan oynada Perezagruzit bayroqchani tanlab OK tugmasini bossak, u holda kompyuter o'chirib qayta yoqiladi. Agar Priostanovit bayroqchani tanlab OK tugmasini bossak, u holda kompyuter ishini to'xtatib turadi. Agar esa Viklyuchit kompyuter bayroqchani tanlab OK tugmasini bossak, kompyuter o'chadi. Kompyuterni o'chirishdan avval hamma ochiq oynalar va ishlab turgan dasturlarni berkitishimiz kerak, chunki kompyuter ular ichidagi ma'lumotlarni saqlab qo'yishi kerak.

PROGRAMMI bo'limi yordamida kompyuterimizga o'rnatilgan dasturlar ro'yxatini ko'rishimiz va ularni ishga tushirishimiz mumkin. Bu bo'lim ichidagi dasturlar va ular guruhlar ro'yxatida STANDARTNIE nomli dasturlar guruhi joylashadi. Bu dasturlar Windows tarkibidagi (birgalikda beriladigan) dasturlardir. Bu dasturlar yordamida biz har-xil asosiy amallarni bajarishimiz mumkin (matn yozish, rasm chizish, musika eshitish, video ko'rish, hisob - kitob qilish, o'yin o'ynash va xokazo).

Boshlovchi (Provodnik) dasturi. PUSK menyusi PROGRAMMI bo'limining STANDARTNIE guruhidan PROVODNIK dasturiga kiriladi.

Boshlovchi (Provodnik) – WINDOWS muhitida foydalanuvchilar fayl va papkalar (kataloglar) ustida har-xil amallar bajarishga mo'ljallangan. Boshlovchi dasturi osonlikcha fayl va kataloglar yaratish, qayta nomlash, nusxa olish, o'chirish kabi bir qator ishlarni tez va soz bajara oladi.



Boshlovchi dasturi yordamida quyidagilar bajariladi:

- fayl yoki katalog yaratish, qayta nomlash, ko'chirish va o'chirish;
- diskdagi katalog mundarijasini yaqqol ko'rish;
- diskdagi katalog daraxtini ko'rish, kerakli kataloglarga o'tish;
- katalog yaratish, qayta nomlash, ko'chirish va o'chirish;
- fayl va kataloglarni yaratilgan sanasi, alifbo bo'yicha, kengaytmasi bo'yicha saralash;
- fayllarni arxivlash va arxivdan chiqarish;
- matnli yoki arxivlangan fayllarni ko'rish;
- matnli va grafikli fayllarni tahrir qilish, diskka yozish;

ma'lumotlar bazasi va elektron jadvallar bilan ishlash;

Dasturning o'z menyuu satri bo'lib, uning bandlari (Mening kompyuterim) menyusidan deyarli farq qilmaydi va nomlanishi aynan saqlangan. Lekin tahririy darcha ikki qism, o'ng va chap bo'laklaridan iborat. Darchaning chap qismida papkalar daraxti, o'ng qismida esa belgilangan papkaga mos kichik papka va fayllar ro'yxati keltirilgan.

Papkalar daraxtida har bir yorliq oldidagi (+) belgisi papkaning to'la ochilganligini bildiradi.

Biror faylni bir papkadan ikkinchisiga o'tkazish uchun, belgilangan faylga sichqonchaning ko'rsatgichi olib kelinib, chap tugma bosilgan holda siljilib, o'tkazilayotgan papkaning ustiga olib boriladi va tugma qo'yib yuboriladi.

Biror faylning nusxasini olish uchun yuqoridagi amal klaviaturadagi Ctrl tugmasi bosilgan holda amalga oshiriladi. Fayl yoki papkalar guruhini belgilash uchun, ularning yonida sichqonchaning chap tugmachasi bosiladi. Natijada ajratib olingan guruh yorliqlarining rangi o'zgaradi. Ulardan nusxa olish yoki ko'chirish yuqoridagiga aynan o'xshash bo'ladi.

Boshlovchi darchasida barcha fayllar bajarayotgan vazifalarining mohiyatidan kelib chiqqan holda mos yorliqlar orqali ifodalanadi. Bu yorliqlarning turi ko'p bo'lib, ularni mohiyatini tushunish uchun Menyuning VID qismidagi SVOYSTVA bandi faollashtiriladi. Xosil bo'lgan muloqatli darchada TIPI FAYLOV bo'limi orqali kerakli ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin. Biror kerakli faylni topish uchun Menyuning SERVIS qismidagi POISK bandiga murojaat qilinib, hosil bo'lgan muloqotli darchada izlanayotgan faylning belgisi (tipi) kiritiladi.

.exe ko'shimchaga ega bo'lgan fayl yorliqlarini faollashtirish orqali mazkur dasturni ishga tushirish mumkin.

Boshlovchi dasturiga o'xshash vazifalarni Moi dokumenti yorlig'ini faollashtirish orqali ham bajarish mumkin. Bu erda alohida olingan foydalanuvchi tomonidan hosil qilingan hujjatlar majmuasi jamlangan bo'ladi.

Fayllar va papkalar bilan ishlash

Fayl - ("file"-inglizcha, "ma'lumot") biror nomga ega bo'lgan va kompyuterning tashqi xotirasida joylashgan bir turdagi ma'lumotlar majmuidir. Bu ma'lumotlar matn, chizma, dastur va h.k. bo'lishi mumkin.

Turli operatsion sistemalar fayl nomlariga turlicha talablar qo'yadi. Masalan, MS-DOS (IBM, "Iskra" kompyuterlarida), Mikrodos ("Korvet") kabi operatsion sistemalarda fayl nomi 8ta belgidan oshmasligi va lotin xarflari, raqam va ba'zi maxsus belgilarda ifodalanishi mumkin; Pravets-8 kompyuterlarida keng qo'llaniladigan DOS-3.3 operatsion sistemasida esa fayl nomi 37tagacha belgiga ega bo'lib, unda lotin harflari bilan bir qatorda kirill harflari ham ishlatilishi mumkin.

Fayl nomining kengaytmasini yozish majburiy emas, lekin u faylda saqlanayotgan ma'lumot turini bildirgani sababli, undan foydalanishda qulaylik tug'diradi. Ko'pgina dasturlar fayl nomi kengaytmasini o'zlari qo'shib yozadilar. Bu kengaytmadan mazkur fayl qaysi dastur tomonidan tashkil etilganini bilib olish mumkin. Masalan:

com, exe - kompyuter "tili"ga o'girilgan dasturlar yoki buyruqlar ketma - ketligini o'z ichiga olgan fayllar kengaytmasi;

bat - buyruqlar majmuini o'z ichiga olgan fayllar;

bas - Beysik dasturlash tilida yaratilgan dastur;

pas - Paskal dasturlash tilida hosil qilingan dastur;

chi - ChiWriter matn muharririda hosil qilingan matn.

bat kengaytmali fayllar, ya'ni buyruq fayllari matn ko'rinishida bo'lib, u operatsion sistema buyruqlaridan tuziladi. Bunday fayllar ketma-ket bajarilishi lozim bo'lgan bir nechta buyruq yoki fayllarni har safar qaytadan yozmaslik uchun tashkil qilinadi. Buyruq fayllari matn mu-harrirlari yordamida hosil qilinishi mumkin.

Kataloglar. EMDlarda fayl nomlari kataloglarda joylashadi. Kataloglar direktoriyalar deb ham yuritiladi. Katalog - bu fayllar nomlari, ularning hajmi, atributlari (xususiyatlari), so'nggi yangilangan vaqti va h.k.lar saqlanadigan EMDdagi maxsus joy. Agar katalogda biror fayl nomi bo'lsa, shu fayl mazkur katalogda joylashgan deb aytiladi. EMDda bir nechta katalog bo'lishi mumkin. Har bir katalogda bir qancha fayllar joylashishi mumkin, lekin har bir fayl faqat bitta katalog ro'yxatida bo'ladi.

Kataloglar aslida maxsus ko'rinishdagi fayllar bo'lib, bosh (ildiz) katalog bundan mustasno. Har bir katalog o'z nomiga ega bo'lib, u boshqa bir katalog ro'yxatida bo'lishi ham mumkin. Katalog nomiga qo'yiladigan talablar fayl nomiga qo'yiladigan talablar bilan bir xil. Odatda katalog nomiga kengaytma

qo'llanilmaydi. Agar X katalog Y katalog ro'yxati ichida joylashsa, X katalog Y katalogning katalog osti, Y esa X ning katalog usti yoki ona katalogi deb yuritiladi.

Katalog - fayl emas, balki fayllar yozish va katalog osti ochish uchun joy ajratishdir.

Misol. Argument x a dan b gacha h qadam bilan o'zgargan funksiya qiymatlari hisoblansin.

```
program takrorl(input, output);  
var x,a,b,h,c,y: real;  
i,n:integer;  
begin  
  read(a,b,h,c);  
  n:=trunc((b-a)/h)+1;  
  x:=a;  
  for i:=1 to n do  
    begin  
      y:=exp(cos(x)) +ln(x+4)/ln(c);  
      writeln('x=',\x:4:2, 'y= ',y:4:2);  
      x:=x+h;  
    end;  
  end.
```

Xulosa

XX asr oxirlarida ilgor mamlakatlarda fan va texnika rivojlanishining real amaliyotida nazariyotchilar yaratgan axborot jamiyati manzarasining chizgilari sekin - asta namoyon bulmoqda. Butun dunyo makonining elektron kvartira va kottejlarida yashovchi kishilar yagona kompyuterlashgan va axborotlashgan jamiyatga aylanishi kutilmokda. Istalgan turar joy turli elektron uskunalar va kompyuterlashgan moslamalar bilan jixozlanadi. Odamlar faoliyati asosan axborotni kayta ishlashga karatiladi, moddiy ishlab chiqarish esa mashinalarga yuklanadi.

Axborot jamiyatiga utishda kompyuter va telekommunikasiya axborot texnologiyalari negizida yangi axborotni kayta ishlash sanoati yuzaga keladi.

Biz xulosa qilib aytishimiz mumkunki yuqorida takidlab, o'rganib chiqqan materillarga tayangan holda WINDOWS XP operatsion sistemasi bugunning talablariga to'la javob beradigan operatsin tizimdir. Buning amaliy namunasi sifatida bugungi kunda mamlakatimizning barcha javxalarida, xususan, bank, moliya, ma'orif, qishloq xo'jaligi va turli soxalarda ushbu tizimdan keng foydalanayotganimizni aytishimiz mumkin. Ushbu operatsion sistemani qulayliklari va imkoniyatlari juda yuqori ekanligini takidlashimiz maqsadga muofiq bo'ladi. Windows XP muhiti foydalanuvchilar uchun qulay, ko'pgina imkoniyatlarga ega bo'lgan dastur bo'lib, MS DOS OT ning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Windows dasturlarida fayl va kataloglarning nusxasini olish, ko'chirish, qayta nomlash, o'chirish va boshqa amallarni tezda va yaqqol bajarish mumkin. Har bir bajarilayotgan amallar ekranda grafik ravishda tasvirlanadi.

Bir so'z bilan aytish mumkinki ushbu operatsion sistemani yaratilishi ulkan kashfiyotlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni// Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.– T.: «Sharq» nashriyot–matbaa konserni, 1997.
2. O‘zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» //Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.– T.: «Sharq» nashriyot–matbaa konserni, 1997.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 21 maydagi PF–3431–sonli «2004–2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to‘g‘risida»gi farmoni//Ta’lim menej-menti. 2005, №1–2.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgustdagi «Umumiy o‘rta ta’limni davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori //Xalq ta’limi. №5, 1999. – B. 4–36.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 22 noyabrdagi 548–sonli «2005–2009 yillarda umumta’lim maktabi uchun darsliklar va o‘quv–metodik qo‘llanmalar nashr etish dasturi to‘g‘risida»gi qarori// Ta’lim menejmenti. 2005. №1–2.
6. www.uzvip.uz
7. www.ziyonet.uz
8. www.library.tuit.uz